

MATEMATIKA DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA UNI QO'LLASH

Mirzayeva Mashhura Alisherovna

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Nabiyeva Zilola Zoxid qizi

FarDU matematika yo'nalishi 4-kurs talabasi

Nabiyeva Muhtaramxon Zoxid qizi

NamDU matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matematika darslarini tashkil qilishda ko'rgazmalilik metodlaridan foydalanish, ularning ahamiyati, ko'rgazmalilikning o'quvchi uchun foydali taraflari, ko'rgazma qurollariga qo'yiladigan talablar, ko'rgazma qurollarining turlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: matematika, ko'rgazma, jonli ko'rgazma, tasviriy ko'rgazma qurollar, jadvallar, hisoblash asboblari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано об использовании демонстрационных методов в организации уроков математики, их значении, требованиях к демонстрационным средствам, типах демонстрационных средств.

Ключевые слова: математика, выставка, живая выставка, наглядные пособия, таблицы, средства расчета.

ABSTRACT

In this article, it is written about the use of demonstration methods in the organization of mathematics lessons, their importance, requirements for demonstration tools, types of demonstration tools.

Keywords: mathematics, exhibition, live exhibition, visual aids, tables, calculation tools.

Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o'qituvchilik kasbidir. Men shu sharafli kasb egasi bo'lganimdan faxrlanaman. O'qituvchi dars o'tayotganida mavzuni imkon qadar o'quvchilarga oson yo'l bilan

tushuntirishga harakat qiladi. Shulardan biri darsni ko'rgazmalar orqali tushuntirishdir. Ko'rgazmalilikning turli xil manbalaridan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning diqqatini oshiradi va rivojlantiradi, o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi va vaqtni tejash imkonini beradi.

Mashhur matematik, akademik A.S.Pontryagen ikkala ko'zi o'z bo'lib qolganligiga qaramasdan, ko'rgazmali tasavvurlar katta ro'l o'ynaydigan joyda matematika sohasida o'zining ilmiy kashfiyotlarini yaratgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ko'rgazmalilik matematika uchun eng zarur bo'lgan metodlardan biridir. O'qituvchi ijodkor bo'lmog'i lozim. Har bir darsda o'quvchilarga yo'q deganda yana bir yangilik bilan aytsa, o'zi tayyorlagan ko'rgazmali qurollardan keng foydalansa, albatta, yaxshi natijaga erishadi. Rang-barang va qiziqarli qilib tayyorlangan ko'rgazmalar o'quvchilarni jalb qilmay qolmaydi. Har bir dars bir-birini takrorlamasligi kerak, shunda bolaning qiziqishi ortadi. O'qituvchi kerakli bilimni bera oladi va ko'zlagan natijaga erishadi. O'quvchining past o'zlashtirishiga sabab savodining (o'qish va yozishining) sustligida, uning sababi esa xotirasining kuchsizligida deb bilaman. Shuning uchun xotirani mustahkamlovchi turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Ko'rgazma samarali bo'lishi uchun ba'zi bir talablarga rioya qilinishi kerak. Ko'rgazmali qurollarga qo'yiladigan umumiy talablar: mazmunining ilmiyligi, o'quv dasturiga mosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi. Matematika o'qitishdagi ko'rgazma manbai mazmun jihatdan sodda va aniq bo'lishi kerak. Bu ko'rgazma qurollar matematika o'qitish bosqichlarida ketma-ket quyidagi tartibda qo'llaniladi:

- a) atrofdagi mavjud narsalar (sinf xonasidagi narsalar, o'simliklar, predmedlar);
- b) o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan narsalarning tasvirlari va rasmlari;
- c) shu narsalarning shartli tasvirlari;
- d) sxema va hokazo.

Boshlang'ich matematika o'qitishda turli xil ko'rgazma qurollari qo'llaniladi, ularni quyidagi turlarga bo'lamiz:

a) atrofda mavjud predmedlar. O'quvchilarga 1-kundan atrofdagi narsalardan sanash, qo'shish, ayirishda foydalanish mumkin. Masalan: kitob, daftar, ruchka va hokazo.

b) tasviriy ko'rgazma qurollar. Bunday ko'rgazma qurollar turiga o'quvchilarga tanish bo'lgan o'quv jadvallari va rasmlardan boshqa qurollar kiradi. Masalan, arifmetik amallar bajarishda 15 ta bir xil bo'lgan gulning rasmi chizilgan kartondan foydalanish mumkin. Shuningdek, bunday ko'rgazmali qurollar turiga o'lchov asboblarning modellari (soat strelkasi, tarozi), o'lchov modeli (metr, litr kabilar kiradi).

c) jadvallar. Jadval deb biror tartib bo'yicha qatorlarga yozilgan son yoki matnli yozuvga aytiladi. Bu materiallarning hammasini birlashtiruvchi mavzu qo'yiladi. Jadvallar qo'llanishiga qarab quyidagi 4 turlarga bo'linadi:

- 1) bilishga;
- 2) ko'rsatma berishga;
- 3) mashq qilishga;
- 4) ma'lumot berishga doir bo'ladi.

Bilishga doir jadvallarda yangi materiallarni bayon qilishda qo'llaniladigan va yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadvallar kiradi. Bulardan o'quvchilarning bilimni kengaytirish va umumlashtirish maqsadida takrorlashlardan ham foydalanish mumkin. Bunday jadvalarga sanoq birliklarining xona va sinflarni ko'rsatuvchi, uzunliklarni o'lchash kabi jadvallar kiradi. Ko'rsatma berish jadvallari u yoki bu amallarni bajarish, masala yechish, hisoblash malakasini oshirishda qo'llaniladi. Bunday jadvalda raqamlarning qo'lyozma namunasi, arifmetik amallarning bajarish tartibini ko'rsatuvchi jadvallar misol bo'ladi. Mashq qilish jadvallari hisoblash malakasini shakllantirish maqsadidagi ko'pgina mashqlarni bajarishga mo'ljallanadi. Bunday jadvalarga og'zaki hisoblashda qo'llaniladigan quyidagi jadvallarni misol qilib keltirish mumkin. Qo'shish va ko'paytirish (Pifagor) jadvallari. Ma'lumotlar jadvallari o'quvchilarning misol va masalalarni yechishda kerakli bo'lgan materiallarni o'z ichiga oladi. Bunday jadvalga metrik o'lchov birliklari jadvali, vaqtni o'lchash jadvallari misol bo'ladi.

d) hisoblash asboblari. Bunday ko'rgazma qurollar turiga cho't, abak, arifmetik quti va kompyuter mikrokolokulyator kiradi. Abak yoki hisob dastasi ko'pincha qo'lda yasaladi.

e) o'lchov asboblari. O'lchov asboblari o'qitish jarayonida ikki tomonlama:

- 1) amaliy mazmundagi masalani yechish va turli ishlarni bajarishda o'lchash uchun ishlatiladi;
- 2) o'lchash birliklari o'rtasidagi bog'lanish va o'lchov birliklarini o'qitishda yordamchi ko'rgazma qurol sifatida ishlatiladi.

Ko'pgina ko'rgazmali qurollarni: jadvallar, ba'zi modellar, individual foydalanish uchun abak, paletka, hisoblash materiallari, tarqatadigan materiallarning ba'zi turlari va boshqalarni o'quvchilarning o'zlari yasashi mumkin. Har bir ko'rgazmali qurolni tayyorlash o'quvchilardan unga nisbatan qiziqish hosil qiladi. Bu esa o'quv materialini yaxshi tushunishga va o'zlashtirishga olib keladi. Har bir darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanilsa, o'quvchilar DTS da matematika bo'yicha standart ko'rsatkichlarida belgilab qo'yilgan natural sonlar va nol to'g'risidagi tasavvurini shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlarni va arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish,

eng sodda geometrik shakllar va ularni tekislikda tasvirlash xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini egallaydilar. Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, har bir dars yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, tajribali o'qituvchilar uslubidan keng foydalanilsa, o'quvchilarning bilim doirasi, dunyoqarashi kengayib, mantiqiy fikrlash qobiliyati o'sadi. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ko'proq ishlashi, izlanishi va intilishi, oldiga yuksak maqsadlarni qo'yishi va shu maqsadlar yo'lida bor shijoati, mehr-muhabbati bilan ishlasa, mehnatining mevasini shirin bolidan bahramand va O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni barkamol va yetuk bo'lib voyaga yetishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.M.E.Jumayev va Z.G'.Tadjiyeva „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” (oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) -T:„Fan va texnologiya”,2005-yil.
- 2.Jakparova Dilfuza Usmonalieva „Matematika darslarini tashkil qilishda ko'rgazmalilik metodi”maqolasi.